

FARG‘ONA - TOSHKENT MAQOM YO‘LLARIGA KIRUVCHI “SEGOH” MAQOMI

Andijon davlat pedagogika instituti
“Ijtimoiy- gumanitar fanlar va san’at “ fakulteti
“Musiqqa ta’limi “ yo‘nalishi 101- guruh talabasi
Yo‘lchiboyeva Risola Azamatjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy musiqaning inson hayotidagi o‘rni, maqom san’atining kelib chiqish tarixi, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga kiruvchi Segoh maqomi haqida ma’lumotlar va tahlillari keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: maqom, ashula, mumtoz kuy, maqom uslublari, ijro uslubi, cholg‘u yo‘li, ashulla yo‘li, Segoh, Shashmaqom, O‘n ikki maqom.

Аннотация: В статье дается информация и анализ роли национальной музыки в жизни человека, истории зарождения искусства макома, маршрутов макома Фергана-Ташкент и макома Сегоха, который является частью маршрутов макома Фергана-Ташкент.

Ключевые слова: маком, пение, классическая мелодия, стили макома, стиль исполнения, инструментальный путь, певческий путь, Сегох, Шашмаком, двенадцать маком

Annotation: This article provides information and analysis on the role of national music in human life, the history of the origin of maqom art, the Fergana-Tashkent maqom routes, and the Segoh maqom, which is part of the Fergana-Tashkent maqom routes.

Keywords: maqom, song, classical melody, maqom Styles, performance style, instrumental track, singing track, Segoh, Shashmaqom, twelve maqom.

Kirish.

Xalqimiz madaniyatini va ma’naviyatini yuksaltirishda, ularning dunyoqarashini kengaytirishda, fikrlash qobiliyatini o‘stirishda milliy musiqamizning va an’anaviy ijrodagi qo‘shiqlarimizning o‘rni beqiyosdir. Milliy musiqamiz durdonalari va an’anaviy qo‘shiqlarimiz avvaldan xalqimiz orasida ardoqlanib, og‘izdan-og‘izga o‘tib, kuylanib, sozlar orqali chalinib kelingan va ularni katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini bilamiz. Mumtoz kuy va qo‘shiqlarimiz milliy tafakkurni ma’naviy kamol toptirishda asosiy vosita sanalgan.¹

Sharq xalqlarining maqom san’ati va ijro uslublari asrlar davomida xalqchil, milliy mahalliy an’analar ta’sirida boyib borgan. O‘zbek mumtoz musiqasida Buxoro

¹ S. Mannopov. “O‘zbek xalq musiqqa madaniyati” (o‘quv qo‘llanma) 2004-yil

Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, surnay, dutor maqom yo‘llari shakllanib, bugungi kungacha yetib kelgan. Maqom cholg‘u va ashula yo‘llari milliy musiqa merosining salmoqli qismini tashkil etib, bastakorlar ijodiyoti uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan. ²

Milliy musiqa ijrochiligimiz uch asosiy yo‘nalishda, ya‘ni Xorazm-Buxoro-Farg‘ona ijrochilik maktablari zamirida rivojlanganligi barchamizga ma‘lum. Har bir vo‘ha xalqining etnik joylanishi, urf-odatlar, mahalliy mentaliteti, yashash turmush tarzi zamirida o‘ziga hos musiqiy ijrochilik uslublari ham mavjuddir. O‘n ikki maqom asosida Shoshmaqom yaratilganligi, Shashmaqom zamirida bastakorlarimiz tomonidan bir-biridan go‘zal cholg‘u va ashula yo‘llari yaratilganligi aniq manbalar asosida bizgacha yetib kelgan. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari ana shunday mashhur ijrolarning mahsulidir.

Toshkent va Farg‘ona vodiysining yirik shaharlari – Qo‘qon, Andijon, Farg‘ona, Namangan, Xo‘jand, Quva, O‘sh hamda Chimkent bo‘ylab yoyilgan Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llari ham yuzaga keldi. Bu turdagi maqomlar Buxoro va Xorazm maqomlaridan farqli o‘laroq, yaxlit bir turkumni tashkil etmay, balki alohida-alohida bo‘lgan cholg‘u va ashula yo‘llaridan iboratdir. Xususan, “Nasrullo I–V”, “Munojot I–IV”, “Ajam Taronalari”, “Miskin I–V”, “Segoh I–III”, “Mushkiloti Segoh”, “Sayqal I–II”, “Mirzadavlat I–II”, “Mushkiloti Dugoh”, “Cho‘li Iroq” kabi cholg‘u kuylari hamda “Chorgoh I–V”, “Dugoh-Husayn I–VII”, “Bayot I–V”, “Bayoti Sheroziy I–V”, “Gulyor-Shahnoz I–V”, “Ko‘cha Bog‘i I–II”, “Segoh”, “Toshkent Irog‘I”, “Munojot” singari ashula yo‘llari shular jumlasidandir. O‘tmishda Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llari nafaqat xon saroylarida, balki xalq hayoti bilan bog‘liq turli sharoit va vaziyatlarda ham mudom ijro etib kelingan. Bu hol ularning xalq orasida mashhur bo‘lishi sabablaridan biri hamdir. Ayni paytda bu maqomlarning Shashmaqom tizimidan farqli o‘laroq “tarqoq tizim” shaklida bo‘lishi sababini mutaxassislar aksariyat holda “shahar madaniyati” omili bilan izohlaydilar. Jumladan, professor V.M. Belyayev Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llarining yaxlit bir butun tizimga ega emasligini ularning asosan “shahar savdogarlari va hunarmandlari muhitida” yashab kelganligi bilan sharhlaydi. Bu masalani o‘zgacha yondashuv asosida izohlovchi boshqa bir nuqtayi nazarda ham “shahar omili”ga muhim o‘rin berilgan. Xususan, professor R.Y. Yunusovning fikricha, Farg‘ona – Toshkent musiqa madaniyatida ijodiy kuchlar Buxoro va Xiva xonlari saroylarida bo‘lgani kabi bir shaharda uyushmagan edilar. Bu holat pirovard natijada maqomlarning yashash shakli va ularni tizimlashtirish masalasiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Nazarimizda, iqtibos etilgan ushbu fikrlarga yana bir sabab omilni qo‘shish kerak. U ham bo‘lsa musiqa ilmining Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llari shakllanishida yetarlicha faol ishtirok etmaganligidir. Chunki, bu davrga kelib

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Maqom>

musiqa ilmi avvalgi asrlarda erishgan o'zining yuqori darajalaridan anchagina chekingan edi. Lekin, bu kabi holatlar mazkur maqomlarning badiiy qiymatini kamsitishga asos bo'lolmaydi, zero qanday shaklda namoyon bo'lishidan qat'i nazar bu namunalarda o'zbek mumtoz kuy va ashulachilik san'atining betakror yuksak va benazir sifatleri mujassamdir.³

Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining shakllanish ildizlari o'rta asrlarda mashhur bo'lgan "O'n ikki maqom" tizimi va undan ham oldinroq mavjud turkumli asarlarga borib taqaladi. "Yo'llari" atamasi ham shunga ishora etadi. Zero "maqom" atamasidan avvalroq musiqa ilmi amaliyotida "yo'l" ma'nosidagi "roh", "tariqa", "ravashin" kabi tushunchalar keng qo'llanib kelingan. Shashmaqomdan farqli ravishda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari nafaqat xon saroylarida, balki xalq hayoti bilan bog'liq turli vaziyat va sharoitlarda ham mudom ijro etilgan. Masalan, surnay yo'llari xalq tomosha va bayramlarida, dorbozlar o'yini va to'y bazmlarida, dutor, tanbur, g'ijjak ijrolari hamda ashula yo'llari uy sharoitlarida o'tkaziladigan turli yig'in va majlislarda namoyon bo'lgan. Ayni paytda, bu maqomlarda Farg'ona-Toshkent musiqa uslubiga xos yalla, ashula, katta ashula janrlarining xususiyatlari o'z aksini topgan. Bu holat ularning musiqiy tili xalqchil va nisbatan ommaviy ekanligi, xalq orasida mashhur bo'lishi sabablaridan biridir. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari ijrochilari mazkur an'anani odatda mashhur ustozlardan o'rganishgan. Shu tarzda bu maqomlarni bizga yetkazib bergan taniqli talqinchilar qatorida Abduqodir naychi, Ahmadjon qo'shnay, A.Yusupov (surnay), Shobarot tanburchi, A.Abdullayev (tanbur), Muhiddin Najmiddinov (dutor, tanbur), Komiljon Jabborov (g'ijjak, dutor), Saidjon Kalonov (nay), Faxriddin Sodiqov (chang, dutor), G'anijon Toshmatov (g'ijjak), Turg'un Alimatov (tanbur, dutor), hofizlar — Shorahim Shoumarov, To'ychi hofiz, Shojalil hofiz, Ilhom hofiz, Sodirxon hofiz, Rajabiylar, Rasulqori Mamadaliyev kabi ustoz san'atkorlarning xizmatlari katta. Bastakorlardan To'xtasin Jalilov, Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev, so'nggi yillarda Abduhoshim Ismoilovlar Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari an'analarida turkumli va alohida ijro etiluvchi asarlar yaratishgan.

Farg'ona-Toshkent maqom cholg'u yo'llarini "Nasrullo I-V", "Munojot I-V", "Ajam va uning taronalari", "Miskin I-V", "Segoh I-III", "Mushkiloti Segoh", "Sayqal I-II", "Mirzadavlat I-II", "Mushkiloti Dugoh", "Cho'li Iroq", "Chorgoh", "Surnay Irog'I", "Surnay Dugohi", "Surnay Ushshog'I" kabi xalqimizning sevimli kuylari tashkil etadi.

Farg'ona – Toshkent maqom ashula yo'llari (cholg'u yo'llari kabi) alohida bo'lgan bir qismli ("Segoh", "Toshkent Irog'i", "Munojot" va boshqalar) namunalardan tortib ko'p qismli ashula turkumlarni namoyon etadi. Ayniqsa, besh

³ O. Ibrohimov . "Maqom asoslari" 2023-yil

qismdan iborat tur kum ko‘rinishi nisbiy muqim tusini olgan. Xususan, “Chorgoh”, “Bayot”, “Bayoti-She’roziy”, “Gulyor-Shahnoz” singari ashula yo‘llari aynan besh qism dan iborat turkumli asarlardir.

Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga kiruvchi Segoh asarini adabiy tahlil qilib chiqamiz. Undan oldin g‘azalni matnini keltirib o‘tamiz:

Hijron tuni jafosila jon bo‘ldi beqaror,
Bo‘ldi sirin butun jahon axliga oshkor.
El etdi tanalar bilan ozorim ixtiyor,
Sen ham jafolaring bila etma menni xokisor.
Ey ko‘nglimni qilguvchi alam bila zor-zor,
Bitdi firoqi jabrini tortmoqqa toqatim.
Rashkila mavj bo‘ldi qaroru halovatim,
Nundek egildi g‘am yuki ostida qomatim.
Fikrim senni visolingu yo‘q o‘zga hojatim,⁴
Ammo sen o‘zga bazmi bilan mastu baxtiyor.

Birinchi xat, hijron chekkan tunlarimda jonim beqanoat bo‘ldi sirim butun jahon ahliga ochiq-oydin bo‘ldi, ikkinchi xat, el meni qildi xatolarim bilan azob ravo ko‘rdi. Sen ham qiynoqlaring bilan qilma meni itoat qilguvchi uchinchi xat, ey⁵ ko‘nglimni alamlaring bilan zor-zor tugadi azob jabrlarni tortmoqqa sabru toqatim. Kuy tahlili esa an’anaviy ashula shakliga mos daromad, miyonxat, dunasr va pirovard kabi boshqichlarni ko‘rsatsatadi. Asarni ijro uslubi juda sokin, dardli yangraydi. Bu esa maqom falsafasi va talqinining yaqqol namunasi.

Xulosa.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki Segoh maqomi – Farg‘ona-Toshkent yo‘lining ohanglari orqali tinglovchiga milliy musiqiy merosni chuqur his qilish imkonini beruvchi, xalqimizning bebaho boyligi. Bu maqom dard va zavqni uyg‘un holda namoyon qilib, milliy musiqamizning falsafiy jihatlarini ochib beradi. Xurshidning Segoh maqomiga mos yozilgan g‘azali chuqur dard, ishq va iztirob mavzularini o‘zida mujassam etadi. Unda oshiqning sevgida devona bo‘lib, hijron va ayriliq azobidan qochib qutula olmasligi, dardni o‘ziga do‘st tutgani aks etgan. G‘azal, ayniqsa, Segoh maqomining ohanglari bilan birlashganda, tinglovchida oshiqning ichki kechinmalarini va tuyg‘ularining samimiyligini teran his qilish imkonini beradi.

Bu g‘azal o‘zining badiiy uslubi, kuchli hissiyoti va musiqiy mosligi bilan mumtoz o‘zbek adabiyoti va musiqa san‘atida yuksak qadrlanadi. Uning asosiy xulosasi shuki, haqiqiy ishq insonni nafaqat baxt, balki iztirob va kamolot sari yetaklaydi.

⁴ <https://zenodo.org/records/14377407>

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O. Ibrohimov . “Maqom asoslari” 2023-yil
2. S. Mannopov. “O‘zbek xalq musiqa madaniyati” (o‘quv qo‘llanma) 2004-yil
3. <https://zenodo.org/records/14377407>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Maqom>